



2018 yilning yanvar – iyul oylarida QURILISH ISHLARI

| | | | |
|---|---|-------|---|
| Joriy yilning yanvar-iyul oylarida Respublikasida jami 24 324,5 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,0 %ni tashkil etdi. | O'zbekiston | etdi. | Kichik korhona va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 41,8 %i yoki 10 161,1 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 113,0 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 27,7 % yoki 6 748,7 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 99,4 %ni tashkil etdi. |
| Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 7 414,7 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 30,5 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,4 %ni tashkil | Raqamlar: Qurilish ishlari hajmi - 24 324,5 mlrd.cym Yirik pudrat tashkilotlari ulushi - 30,5 % Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi - 41,8 % Norasmiy sektor ulushi - 27,7 % | | |

Yirik pudrat tashkilotlari

- hajmi - **7 414,7 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **106,4 %**


Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar

- hajmi - **10 161,1 mlrd.so'm**
- o'sish surati **113,0 %**

Norasmiy sektor

- hajmi - **6 748,7 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **99,4 %**

Yanvar - iyul oylarida faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari





Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 77,4 %ni tashkil etdi va o`tgani yilning mos davridagi

ko`rsatkichga nisbatan 1,1 % punktga ko`paydi.

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 11,1 %ni tashkil etib, o`tgani yildagi ko`rsatkichga nisbatan 0,4 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 11,5 % to`g`ri keldi hamda o`tgani yildagi ko`rsatkichga nisbatan 0,7 % punktga kamaydi.


yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo`yicha tarkibi



Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 28,8 %ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 2,9 %

punktga ko`paydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 36,1 % (0,4 % punktga ko`paydi) va norasmiy sektorning ulushi 35,1 %ni (3,3 % punktga kamayish) tashkil etdi.


Faoliyat turlari bo`yicha tarkibi (jamiga nisbatan %da)



Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 48,0 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,8 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 47,1 % (2,0 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 4,9 %ni (0,8 % punktga kamayish) tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 8,5 % punktga kamaydi va 25,2 %ni tashkil etdi. Qolgan 74,8 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalarhissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 8,5 % punktga ko'paydi.

Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo`yicha qurilish ishlari



Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri keldi. Ular tomonida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 10 161,1 mlrd. so`mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 41,8 %) tashkil etib, o`tgan yilning


mos davriga nisbatan 13,0 %ga ko`paydi.

Yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan 7 414,7 mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 30,5 % ni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan 106,4 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 27,7 %i yoki 6 748,7 mlrd. somni tashkil

etib, o`ngan yilning mos davriga nisbatan 99,4 %ni tashkil etdi.


Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo`yicha qurilish ishlarining o`sinh suratlari



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining hududlar bo'yicha tarkibida Navoiy viloyati yetakchilik

qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlarining 34,7 %i yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan.


Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Samarqand viloyatida kuzatildi 1,4 %. Bu hududdagi qurilish ishlarining asosiy qismi norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelib 50.8% ni tashkil qildi.

Ushbu hududda ham kichik tashkilotlar va mikrofirmalar tomonidan salmoqli qurilish ishlari bajarildi va ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi hududdagi jami qurilish ishlarining 47,8% ini tashkil etdi.

Hududlarda qurilish ishlarining o`shish suratlari (o`tgan yilning mos davriga nisbatan %da)




Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o`shish surati Navoiy viloyatida kuzatildi. Ushbu hududda "Auminso-Amantoy konlari" da oltin-ma'danli konlarni qazib olish va qayta ishlash bo'yicha konlarni qurish (I-II bosqich), Amudaryo-Zarafshon suv yo'lida nasos stansiyasini rekonstruksiya qilish kabi loyihalarning amalga oshirilayotgani tufayli ushbu hududda o`shish suratining 131,0 % bo`lishini ta`minladi.

Toshkent shahridagi yuqori o`shish surati, yani 111,6 % metro liniyalarining qurilishi, Toshkent shahar halqa yo`lida elektro poyezdlar uchun temir yo`l qurilishi va boshqa loyihalarning bajarilishi natijasidir.

Farg'ona viloyatidagi yuqori o`shish surati asosan norasmiy sektor tomonidan qurilish ishlarining jadal bajarilganligi bilan bog`liq.

Hududlar kesimida qurilish ishlari (mlrd.so`m)




Qurilishda band bo`lgan har bir ishchiga to`g`ri keladigan qurilish ishlarini ko`radigan bo`lsak, eng yuqori ko`rsatkich Toshkent shahrida kuzatildi. Bu hududda qurilishda band bo`lgan har bir ishchiga 38,5 mln. so`m

qurilish ishlari hajmi to`g`ri keldi.


Shuningdek, Jizzax viloyatida ham bu ko`rsatkich boshqa hududlarga qaraganda sezilarli darajada katta boldi – 25,9 mln. so`m.

Qurilishda band bo`lgan 1 kishiga to`g`ri keladigan qurilish ishlari hajmi



Toshkent viloyati bo'yicha qurilishda band bo'lgan har bir kishiga Respublikadagi eng past

ko'rsatkich 9,4 mln. so`m tog'ri keldi.



O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

J.Saipov
(0371) 230-80-56